

TUTINGAN OTA-ONALAR VA BOLALAR O'ZARO MUNOSABATLARINING
IJTIMOIY - PSIXOLOGIK HOLATI

Islamova Dilafroz Bustanovna

O'z-Fin.instituti mustaqil izlanuvchi.

Orzimurodov Azizjon

Maktabgacha ta'lif kafedrasi 309 – guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tutingan oilalar va bolalar o'zaro psixologik moslashuvining ijtimoiy – psixologik jihatlari yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Tutingan ota-onas, ijtimoiy himoya, tayyorlov kurslari, tutingan bola, qondosh bola, negativ holat, qalb jarohatlari.

Annotatsiya: V state osvecheny sotsialno-psixologicheskie aspekty psixologicheskoy adaptatsii semi i detey.

Klyuchevoe slovo: Priyomnyy roditel, sotsialnaya zaqita, podgotovitelnye kursy, priyomnyy rebenok, krovnyy rebyonok, otritsatelnoe sostoyanie, serdechnoe ranenie.

Annotation: The article highlights the socio-psychological aspects of the psychological adaptation of families and children.

Key Word: Foster parent, social protection, preparatory courses, foster child, blood child, negative condition, heart injury.

Yurtimiz jadal rivojlanish davrida o'tgan bir vaqtida ota ona qarovisiz qolgan bolalarga bo'lgan e'tibor, ularni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning yangi tizimini joriy etish uchun prezidentimiz tomonidan 2021 yil 9 avgustda PQ-5216-sonli¹ qarorning qabul qilinishi xalqimiz tomonidan yuksak e'tibor sifatida qabul qilindi. Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha keng jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokama natijalari ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi shart-sharoitlarni yaratish uchun keng imkoniyat yaratildi va xalqimiz mentalitetiga xos bolajonlik, mehribonlik nihoyat o'z tasdig'ini topdi.

SHunga ko'ra, 2021 yil 15 avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlashning quyidagi tartibi o'rnatildi:

- o'zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo'limgan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular 18 yoshga to'lgan yilda ko'p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo'limgan 1 xonali, voyaga etgan yetim bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda 50 kvadrat metrdan kam bo'limgan 2 xonali kvartiralar ajratiladi. Bunda,

¹ <https://lex.uz/ru/docs/5569689>

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)

mazkur toifaga kiruvchi nogironligi bo'lgan bolalarga kvartiralar ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi;

-yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun kvartiralar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ko'chmas mulkning birlamchi bozoridagi shahar va tumanlarda qurilgan ko'p kvartirali uy-joylardan xarid qilinadi;

-tegishli tuman (shahar)da ko'chmas mulk birlamchi bozorida mazkur bandda nazarda tutilgan mezonlarga mos keladigan kvartiralar mavjud bo'limganda, hududiy «Xalqparvar» komissiyalari xulosasiga asosan kvartiralar ko'chmas mulkning ikkilamchi bozoridan tegishli mezonlarga muvofiq holda xarid qilinadi;

-yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joylar bilan ta'minlash «onlayn-navbat» tizimi asosida amalga oshiriladi, bunda mazkur navbatga o'zgartirish kiritilishiga hamda navbatidan oldin keyingi navbatdagi bolalarga uy-joy ajratilishiga yo'l qo'yilmaydi;

-Xalq ta'limi vazirligi yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joy bilan ta'minlanishi holati haqidagi har oyda yangilanadigan ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytida joylashtirib boradi.

SHuningdek, yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) olayotgan va tarbiya qilayotgan oilalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadida:

-yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ota-onalarining yaqin qarindoshlariga ushbu bolalarni navbatsiz farzandlikka yoki oilaga tarbiyaga (patronatga) olish huquqi berildi;

-2021 yil 1 sentyabrdan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xalq deputatlari tuman va shahar kengashlarining tashabbusi bilan, yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni vasiylikka va homiylikka olgan «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimida ro'yxatga olingan oilalarga ushbu bolalar 18 yoshga to'lguniga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida moddiy yordam puli to'lash amaliyoti joriy etildi;

-2021 yil 1 sentyabrdan keyin nogironligi bo'lgan bolalarni vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan oilalarga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadigan to'lovlardan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorigacha etkaziladi;

-yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ularni farzandlikka yoki vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan fuqarolarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi YUridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan bepul yuridik xizmat ko'rsatiladi.

Prezident qarorini amaliyotga joriy etish maqsadida olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga ko'ra, ijtimoiy psixologik jihatdan ota-onalar va bolalarning oilaga o'zaro moslashuvchanligini taminlash maqsadida quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Agar tutingan ota-onalar biror-bir bolani tanlash bosqichida bo'lsalar, unda bolaning o'zi va o'tmishi to'g'risida imkon qadar ko'prok bilib olishlari kerak. Qanchalik ko'p ma'lumot to'play olsalar, ularda oilaviy hayotni ijobiy muloqotdan boshlashlariga shunchalik ko'p imkon tug'iladi va ular ota-onsa rolida o'zlarini ishonchli his qiladilar. Albatta, bolaning hayoti to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni bila olmaysiz, ammo olish mumkin bo'lgan ma'lumotlardan foydalangansiz, bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan bilish va ularni hal etishga tayyorlanishda yordam beradi.

Bolaning tarbiyachisi, ijtimoiy ishchi hamda Bolalar uyi (Mexribonlik uyi) direktori bilan, albatta suhbatlashib, ulardan quyidagilarni so'rab olishingiz zarur:

- * bolaning qondosh oilasi to'g'risida;
- * yaqin insonlari to'g'risida; (aka-uka, opa-singil, buva, buvilari, boshqa qarindoshlari va hokazo);
- * bola qarindoshlaridan birortasi bilan muloqotda bo'ladimi;
- * bola avval qaerda yashagan va unga kim g'amxo'rlik qilgan;
- * tibbiy omillar to'g'risida – allergiyasi, emlanganligi, stomatologik ko'rsatkichlari, kasalxonada davolanganligi va hokazo;
- *bolaning biror-bir ehtiyojlari, qiyinchiliklari, xavotirlari bormi;
- * Mehribonlik uyi yoki Bolalar uyida o'zini qanday tutadi;
- * bolaning sevimli uynlari, kitoblari, o'yinchoklari, boshqa qiziqishlari bormi;
- * bolaning alohida qobiliyatlari, malakasi, iste'dodi, qiziqishlari bormi;
- * bolaning hozirgi vaqtagi yutuqlari qanday;
- * bolaning sevimli (yoqtirmagan) taomlari qaysilar;
- * bolada uyqu, uqlashda yotish yoki uyg'onishida muammolari bormi;
- * bolaga ko'proq qanday muomala yoki uni kay tarzda yupatishlari yoqadi;
- * bola xafa bo'lgan, jahli chiqqan yoki qo'rqqan vaqtida o'zini qanday tutadi;
- * bola o'z o'ziga xizmat ko'rsatishning qanday malakalariga ega (yuvinish, kiyinish va hokazo);
- * siz bilgan yoki taniydigan maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab yoki psixologning biror-bir yozma tavsifnomasi mavjudmi.

Tanishuv bosqichida Siz bola bilan birinchi bor Bolalar uyida yoki Mexribonlik uylarida uchrashishingizga to'g'ri keladi. SHu payt, albatta, turli hissiyotlarni boshdan kechirasiz – quvonch, xavotir va balki juda qisqa vaqtida bolaning o'z oilangiz a'zosiga aylanishini tasavvur qilish istagi paydo bo'lishi mumkin. SHunga qaramasdan, bola ham siz kabi mana shunday ziddiyatli kechinmalarni his qilishini, notanish inson oldida uyalishi va qo'rqishini esda tutish zarur. Birinchi uchrashuvlar o'zaro ishonchli munosabatlar yuzaga kelishi uchun juda muhim hisoblanadi. Agar bolaga uz uyingiz,

qarindoshlaringiz, uy hayvonlaringiz va shu kabilarni fotosuratlarini ko'rsatsangiz, u o'zini erkinrok his qilishi mumkin. Bu harakatlar bola uchun kutilayotgan ko'chib o'tishni xavotirsiz va yanada yoqimliroq bo'lishini ta'minlaydi. SHu vaqt davomida bola oilangizning barcha a'zolari bilan tanishib olishi va ular haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Agar o'zingiz bilan sovg'a olib kelmokchi bo'lsangiz, unda bu konfetlar yoki guruhdagi barcha bolalar bilan bo'lishish oson bo'lgan nimadir bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonning yana bir muhim tomoni – oila a'zolarini bolaning kelishiga tayyorlashdan iborat. Bolani olib kelish oldidan o'z yaqinlaringiz bilan gaplashib, har tomonlama maslahatlashib oling, ushbu hodisaga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon bering. Iloji boricha ularning barcha savollariga javob qaytarishga, munosabat bildirishga harakat qiling. Ularda ham o'zingizda ham bolaga nisbatan umidlaringiz juda oshirib yuborilgan bo'lishi mumkin, bunga ham e'tiborli bo'lish zarur.

Bola va oila a'zolari o'rtasida oldindan ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirish, quvonchli tuyg'ularga asoslangan barqaror holatni yaratish juda muhim. Bularni bola uyga kelishidan boshlab yuzaga keltirish mumkin. Bolaga uyning, oila a'zolarining, uy joylashgan manzil va uyda mavjud bo'lgan hayvonlarning fotosuratini, uydagilarga esa – bo'lajak mehmonning fotosuratini ko'rsatish va u bilan yaqinroq tanishish yanada yaxshi natijalarni beradi.

Tutingan bolani uyga kelishidan oldin amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar:

1. Bola uchun qulay, alohida uqlash xonasini tayyorlash. Agarda bola tunda to'shagini ho'llab qo'yadigan bo'lsa, bu jiddiy muammo: tushak uchun pastlik choyshab va almashtirish uchun o'rinn-ko'rpage ega bo'lishi zarur.

2. Bola shaxsiy gigienasi uchun shampun, sovin, sochiq, tish cho'tkasi, tish yuvish pastasi va og'iz chayish uchun stakan, dezodorantlar va shu kabilarni tayyorlash lozim.

3. Bola o'ynashi uchun uning uchun ahamiyatli bolalar uyinchoqlari, uyinlar, bola yoshiga to'g'ri keladigan velosiped va boshqalar mavjud bo'lishi zarur. Rangli qalamlar, qog'oz, chizish qurollari, rasmli kitoblar bo'lgani yana ham yaxshi. Agar bolani o'ynash imkoniyati cheklangan bo'lsa, unda sizning vazifangiz – tegishli uyinlarni topish hisoblanadi. O'z uyingizni "bolalarga do'stona uy" tushunchasiga moslik nuqtai nazaridan baholang.

4. Ovqatlanish: bolani uyingizga olib kelishdan avval u Mehribonlik uyida qanday taomlarni iste'mol qilishga odatlanganligi bilib oling va birinchi kunlardan boshlab o'zingizning oshpazlik mahoratingiz bilan qoyil qoldirishga harakat qiling, chunki barcha bolalar ham uyda tayyorlanadigan taomlarga tez ko'nikib ketmaydilar. Bundan tashqari, uyda oddiy taom tayyorlashga imkon beradigan engil mahsulotlar bo'lishi kerak. Masalan, tezlikda nonushta tayyorlashga imkon beradigan shokoladli krem, meva sharbatlari, murabbolar, sariyog', tuxum va non.

Bola sizning oilangizga ko'nikishi uchun unga quyidagicha yordam berish maqsadga muvofiqdir:

- birgalikdagi uyinlar va bola bilan sevimli mashg'ulotlarini tashkil etish;
- birgalikda uy yumushlari bajarish;
- uni qiziktirgan mavzularda suhbatlar uyushtirish;
- bolaning so'zlarini tinglash, uning muammolarini tushunish, uning qiziqishlarini bilib olish (ular sizga qanchalik arzimasdek tuyulsa ham bola uchun barchasi muhim bo'ladi);
- xafa bo'lganida uni qo'llab quvvatlash, o'zini yomon his qilganida yoki betob bo'lganida tug'ishganlardek parvarish qilish.

Ko'chib o'tishning ijtimoiy-etnik va tarbiyaviy-psixologik jihatlari. Mehribonlik va Bolalar uylarida yashagan bolalar qat'iy kun tartibiga odatlangan bo'ladilar: ertalab turish, taom iste'mol qilish, o'yin yoki o'qish, dam olish jadvali va shu kabilar. Bola oilaga kelganida bir necha kishilar bilan birga yashashga psixologik odatlanishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Uning oilada yashash tajribasi bo'lmasligi yoki hayot tajribasi faqatgina ijobiy emas, balki salbiy xotiralari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda bola o'z harakatlari to'g'rilinga, imkon boricha ko'proq ishonch hosil qilishi kerak. Bolaga uyingizda mavjud bo'lgan qadriyatli-me'yoriy qoidalar va turmush tarziga xos tasavvurlarni anglatishga xamda boladan nimalarni kutishingizni tushintirishga tayyorlaning. Avvaliga unga barchaning diqqat markazida bo'lish yoqishi mumkin ammo bu holat guruhda "yashirinib yurishga" odatlangan bola uchun sinov bo'lishi ham mumkin.

SHunday qilib, tutingan ota-onalar va bolalar o'zaro moslashuvchanligining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy asoslash orqali ijtimoiy-etnik va tarbiyaviy-psixologik me'yorlarga amal qilish bilangina oilalar to'laligi, tinch-totuvligi, bolalarning barkamol inson sifatida shakllanishlariga imkon yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bustanovna, I. D. (2021). Socio-ethnic factors of psychological adaptation of foster-families and children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 34-37.
2. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., & Исламова, З. Б. (2017). Дистрофические Изменения В Эхинококковых Кистах, Осложненных Грибами Рода Aspergillus И Paecilomyces. In World Science: Problems And Innovations (pp. 298-302).
3. Bustonovna, I. Z., & Normuratovna, M. G. (2022). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA BIOLOGY OF DC AS A PROMISING MEDICINAL PLANT. LITERATURE REVIEW PART 2. Thematics Journal of Education, 7(3).
4. Исламов, Б. С., & Исламова, З. Б. (2020). БИОЛОГИЯ СЕМЯН КУЗИНИИ ТЕНЕВОЙ (COUSINIA UMBROSA BUNGE). In Современная наука: перспективы, достижения и инновации (pp. 39-47).

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-4 (30-April)

5. Bustonovna, I. Z. (2022). REASONABLE USE OF MEDICINAL PLANTS. Literature review Part 2. Asian journal of pharmaceutical and biological research, 11(2).
6. Islamova, Z. B. (2020). THE YILD OF BEANS USING MINERAL FIRTILIZERS AND NITROGEN. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 234-236).
7. Хожиматов, О. К., & Исламова, З. Б. (2022). Анализ аминокислотных состав, систематическая роль и значение видов рода *biebersteinia*. Science and innovation, (Special Issue), 395-401.
8. Исламова, З. Б., Назарова, Г. Х., & Маткаримова, Г. М. (2021). БИОЛОГИЯ И АГРОТЕХНИКА СОИ. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 21-23).
9. Bustonovna, I. Z. (2022). Studying the biology of *biebersteinia multifida* DC. Thematics Journal of Education, 7(4).
10. Исламова, З. Б., & Туракулов, Э. М. (2022). ЛЕЙШМАНИОЗЫ-ПАТОГЕНЕЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ. In European Scientific Conference (pp. 178-180).
11. Назарова, Ф. Ш., Назарова, Г. Х., & Исламова, З. Б. (2021). БИОЛОГИЧЕСКИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АЗКАМАРСКОГО БЕНТОНИТА И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КАК ИСТОЧНИКА МИНЕРАЛЬНОГО ПИТАНИЯ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 244-251.
12. Маткаримова, Г. М., Назарова, Г. Х., & Исламова, З. Б. (2021). РАСТЕНИЯ КИЗИЛ (CORNUS MAS L.)-ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 11-13).
13. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., Исламова, З. Б., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2014). ИНФЕКЦИОННО-ТОКСИЧЕСКИЕ КАРДИОПАТИИ И МИОКАРДИТ, ПОЛУЧЕННЫЕ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ЗАРАЖЕНИИ МЫШАТ ЭХИНОКОККОЗОМ, ЦЕНУРОЗОМ, ЦИСТИЦЕРКОЗОМ И ПЕЦИЛОМИКОЗОМ. Проблемы биологии и медицины, (3), 79.
14. ISLAMOVA, Z., & MAMUROVA, G. (2023). AMOUNT OF VITAMINS CONTAINED IN BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC. Innovations in Technology and Science Education, 2(7), 1298-1303.
15. Nazirova, S., & Islamova, Z. B. (2023). About mythopathic diseases. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 7, pp. 61-63).
16. Maksudjanovna, M. G., & Bustanovna, I. Z. (2020, June). FIRST CELL OBSERVATIONS AND RESEARCH. In Archive of Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 142-143).
17. Исламова, З. (2016). УРОЖАЙНОСТЬ СОИ И ФАСОЛИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ И НИТРАГИНА. In Россия в XXI веке: факторы и механизмы устойчивого развития (pp. 18-20).
18. Абдурафикова, Р. А., Усманова, Г. А., & Исламова, З. Б. (2024). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В НАРОДНОЙ

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)

МЕДИЦИНЕ. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 133–137. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2216>

19. Akramova , F. B., & Islamova, Z. B. (2024). BOLALAR VA KATTALARDA GIDROSEFALIYA KASALLIGI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH USULLARI. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 89–93. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2208>

20. Tursunpo'latova , D., & Islamova, Z. B. (2024). ERTA QARISH – PROGERIYA KAMDAN KAM UCHRAYDIGAN GENETIK KASALLIK. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 106–110. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2211>

21. Islamova, Z. (2023). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC. NI MADANIYLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH. Iqlimning Davom Etayotgan o'zgarishi Sharoitida Oziq-Ovqat Xavfsizligiga Erishish Uchun Agrobiologik Xilma-Xillikni o'rganish, Saqlash Va Barqaror Foydalanish Muammolari, 26–30. Retrieved from <http://inashr.uz/index.php/ripgr/article/view/19>

22. <https://thematicsjournals.in/index.php/tjed/article/view/1219>

23. Bustonovna, I. Z., Davronovich, A. D., Muhammedjanovich, M. S., & Normuratovna, M. G. (2022). The significance of the nature of nucleic acids in the formation of productivity signs.

24. Islamova, Z. B. Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan.

25. Исламова З. Б. и др. ИССЛЕДОВАНИЕ-BIEBERSTEINIA MULTIFIDA //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – Т. 7. – №. 3. – С. 26-31.

26. Aktam o'g'li, Rabbonayev Axmadjon, and Islamova Zebiniso Bustonovna. "IRSIY KASALLIKLAR-DAUN SINDROMI KELIB CHIQISHI, ASOSIY BELGILARI, TASHXISLASH." JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 7.3 (2024): 250-256.

27. Исламова, З. Б., & Примкулов, Ж. Р. (2024). МАКРОЭЛЕМЕНТНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА BIEBERSTEINIA MULTIFIDA МЕТОДОМ ICP-MS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(28), 54-59.

28. Исламова, З. Б., & Абдурашидов, А. А. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA-ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 163-167.

29. Madilloyevich, A. M., & Bustonovna, I. Z. (2024). EXINOKOKKOZ-YUQISH YO'LLARI, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 65-69.

30. Tolmas o'g'li, H. J., & Bustonovna, I. Z. (2024). DAUN KASALLIGI-QUYOSH BOLALARI KAMDAN KAM UCHRAYDIGAN GENETIK ANOMALIYA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 38-42.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)

31. Bustonovna, I. Z., & Murodullayevich, T. E. (2022). VIOLATION OF ONTOGENESIS IN THE PATHOLOGY OF HUMAN DEVELOPMENT. Thematics Journal of Education, 7(4).
32. Информация о статье (google.com)
33. Islamova, Z. B. Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan.
34. Bustonovna, I. Z., & Kizi, M. D. Y. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA MICROELEMENT COMPOSITION AND APPLICATION IN FOLK MEDICINE. Scientific Impulse, 2(19), 45-49.
35. Kh, K., Mukimov, T., Islamov, B., & Nurillayeva, N. (2020). Biological features and productivity of drought-tolerant fodder plants under the conditions of the Adyr zone of Uzbekistan. International J Sci Technol Res, 6(8), 34-38.
36. Rahmonov, O., Zaurov, D. E., Islamov, B. S., & Eisenman, S. W. (2020). Resources along the Silk Road in Central Asia: Lagochilus inebrians Bunge (Turkestan Mint) and Medicago sativa L. (Alfalfa): Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan. In Natural Products of Silk Road Plants (pp. 153-167). CRC Press.
37. Islamov, B., Hasanov, M., Turakulova, G., & Akhmedov, A. (2022). Estimate of the current condition of populations of the Lagochilus olgae R. KAM. (Lamiaceae Lindl.) in Uzbekistan. American Journal of Plant Sciences, 13(3), 307-315.
38. Sultonovich, I. B., Xudoyqulovich, M. T., & Ma'rufovich, N. M. S. (2020). Features of biology and ecology, growth and development of Cousinia species in various ecological conditions of uzbekistan. International Journal of Advanced Research in Engineering and Technology, 11(11).
39. Абдурахмонов, У. У., & Исломов, Б. С. (2016). Виды и роль здоровой социальной конкуренции в достижении профессионального мастерства молодежью. Социология и право, (1 (31)), 16-21.
40. Исламов, Б. С., Эрданова, Ш. С., & Мукумов, И. У. (2022). ФЛОРА И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ВОДЫ РЕКИ ЧАШМА ГОРОДА САМАРКАНД (УЗБЕКИСТАН). Вестник науки, 5(1 (46)), 191-197.
41. Исломов, Б. С. (2021). Самаркандский государственный университет (г. Самарканда, Республика Узбекистан). ВІСНИК НАУКИ.
42. Муминов, С. Р., Исломов, Б. С., & Ташпулатов, Й. Ш. (2021). ВОДНЫЕ И ПРИБРЕЖНЫЕ РАСТЕНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТРАСЛЯХ. Вестник науки, 4(4 (37)), 191-196.
43. <https://scholar.google.com/citations?user=CBY4AzIAAAJ&hl=ru>
44. Исламова, Нилуфар Бустановна. «Осложнения, возникающие в полости рта после полихимиотерапии у больных гемабластозами». Международный журнал научных тенденций 3.3 (2024): 76-81.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)

45. Буустановна, Исламова Нилуфар. «Гигиеническая оценка состояния слизистой оболочки полости рта после ортопедического лечения». Международный журнал научных тенденций 3.3 (2024): 56-61.